

TURON XALQLARINING ERON VA MAKEDON BOSQINCHILARIGA QARSHI KURASHI

Aralov Jahongir Ne'matulla o'g'li

Jizzax davlat pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Turon xalqlarining bosqinchilarga qarshi kurash olib borgan To'maris, Shiroq, Spitamen kabi xalq qahramonlari va ularning faoliyatlari haqida ma'lumotlar berilgan. Ushbu ma'lumotlarda bu tarixiy shaxslarning mardonavor janglari, harbiy taktika va amallari xususida fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Ahamoniylar davlati, Kir II, To'maris, Doro I, Shiroq jasorati, Gerodot, Poliyen, "Harbiy hiylalar", Ranosbat, Makedoniyalik Aleksand, so'gd zodagoni Spitamen, tarixchi Arrian.

Qadimgi dunyo tarixida muhim iz qoldirgan, mamlakatlar tarixida birinchi imperiya sifatida vujudga kelgan davlat bu Fors podsholigi-Eron ahamoniylar davlatidir. Tarixdan ma'lumki, Fors podsholigi mil.avv. VI asr o'rtalaridan- IV asrning 30-yillarigacha faoliyatda bo'lgan va juda katta hududlarni o'z ichiga olgan davlat bo'lgan. Davlat hududlarini kengaytirgan Kir II davridan boshlab Ahamoniylarning Vatanimiz hududiga bosqinchilik yurishlari amalga oshirila boshlandi. Bu yurishlar davrida ularga qarshi Turon xalqining ko'plab jangchilari mardonavor kurashlar olib borgan. Ular orasida massagetlar qabilasi malikasi To'marisning o'rni va ahamiyatini beqiyosdir.

To'maris - qadimgi yunon tarixchisi [Gerodotning](#) „Tarix“ (mil. av. V-asr) asarida yozilishicha, Ahamoniylar davlati asoschisi [Kir II](#) mil. av. 530 yilda Turonga bostirib kirganida, To'maris massagetlar qabilasining malikasi bo'lgan. Massagetlar bu paytda Amudaryo (Araks) bo'ylari va Qizilqumda yashashgan. To'maris massagetlar podshosining xotini bo'lib, u erining vafotidan so'ng davlatni boshqargan[Abdiyev H., Qo'nishev J. 184-185 b.]. [Erondan](#) kelgan bosqinchilar qo'shini va massagetlar o'rtasida

shiddatli janglar bo'lgan. Dastlabki jangda To'marisning o'g'li Spargalis (Siparangiz) boshchiligidagi massagetlar g'olib chiqqan. Biroq keyingi jangda forslar hiyla yo'li bilan Spargalis va ayrim massagetlarni asir olishganda, ornomusga chiday olmagan Spargalis o'zini o'ldirgan. To'maris o'g'lining halokatidan esankirab qolmay, o'z xalqining manfaatini o'ylab, Kir II dan massagetlar yurtidan chiqib ketishini so'raydi. Biroq forslar shohi rad javobini bergach, ikki o'rtada ayovsiz jang bo'lgan [Shamsutdinov R. Karimov Sh.42-43 b.]. Gerodot massagetlar va forslar o'rtasidagi jang tafsilotlarini o'z asarida quyidagicha tasvirlaydi: „Mening bilishimcha, bu jang varvarlar o'rtasidagi barcha janglardan ham dahshatli bo'lgan. Avval har ikkala qo'shin bir-birini uzoq masofadan turib, kamondan o'qqa tutdilar. Kamon o'qlari tugagach, ular nayza va qilich bilan kurashdilar. Jang uzoq, vaqt davom etdi. Ko'p qon to'kildi. Nihoyat, massagetlar g'alaba qozondilar. Fors qo'shinlarining asosiy qismi, jumladan, Kir II ham jang maydonida halok bo'lgan. U to'liq 29 yil shohlik qilgan edi. Kir II ning jasadi topilgach, malika (To'maris)ning buyrugi bilan uning kesilgan boshi inson qoni bilan to'lg'azilgan meshga solingan“ [Mirkarim Osim. 19 b.]. Demak, Fors podsholarining Vatanimizdagi dastlabki qaqshatqich zarbasini qabul qilib olishi malika To'maris nomi bilan bog'liq holda kechgan ekan. Keyingi davrlarda, Turon xalqlarining ahamoniylar podshosi Doro I bosqiniga qarshi kurashgan xalq qahramoni sifatida Shiroq (yunon manbalarida Sirak) nomi tilga olinadi uning hayoti haqida manbalarda juda oz ma'lumotlar saqlanib qolgan.

Mil.av. VI asr boshlarida Eron shohi Doro I qo'shini Turon hududiga bostirib kirgan. Yunon tarixchisi va notig'i Poliyenning 8 kitobdan iborat „Harbiy hiylalar“ („Strategmalar“) asarida ilk marta Shiroq jasorati tilga olingan. Poliyenning yozishicha, sak qabilalari oqsoqollari Sakfar, Omarg va Oamiris fors qo'shinini yengish uchun harbiy kengash (qurultoy) o'tkazayotganda, ularning huzuriga oddiy otboqar Shiroq kelib, o'z rejasini bayon qilgan. Rejaga ko'ra, Shiroq o'z qabilasi manfaatini himoya qilib, harbiy hiyla ishlatgan va yolg'iz o'zi Doro I lashkariga qarshi turgan [Abdiyev H., Qo'nishev J.185-186 b.]. Shiroq Doro I qarorgohiga kelib, unga qabiladoshlari nohaq sitam yetkazganligi uchun (uning burni va quloqlari kesilgan edi) u Eron qo'shinini saklar

(shaklar) qabilasi turgan yerga qisqa yo'l bilan olib borishini aytib, dushman qo'shinini Qizilqum cho'li ichkarisiga boshlaydi. Eron qo'shini „yo'l boshlovchi“ning maslahati bilan faqat 7 kunga yetadigan suv, oziq-ovqat va yem-xashak olgan edi. Jazirama issiqda cho'lni kechib o'tayotgan dushman qo'shini holdan toyib, oziq-ovqat ham tugaydi. Nihoyat, muhlatning 7 kunida dushman qo'shini aldanganini payqaydi. Shiroq atrofini qurshab olgan shoh Doro I va uning sarkardalariga qarata quyidagi so'zlarni aytgan: „Men yolg'iz o'zim Doro qo'shinini yengdim. Sizlarni aldab, cho'lning qoq o'rtasiga olib keldim. Xohlagan tomoningizga ketishingiz mumkin, vohagacha to'rt tomoningiz ham 7 kunlik yo'l!“ [www.uz.wikipedia.org. internet sayti.]. Dahshatga tushgan shoh va uning sarkardalari Shiroqqa yulvorib, unga suvsiz cho'ldan olib chiqishi uchun katta boylik va'da qilishadi. Shiroq vatan ozodligi yo'lida jonni fido qilishini aytgach, Doro I ning sarkardasi Ranosbat uni qilich bilan chopib tashlaydi. Qo'shinning asosiy qismi suvsizlik va ochlikdan Qizilqum cho'lida qirilib ketgan. Faqat Doro I va uning oz sonli a'yonlari yomg'ir yog'ishi natijasida halokatdan qutulib, Baqtra daryosi (Amudaryo) qirg'og'igacha yetib kelishgan[Shamsutdinov R. Karimov Sh. 45-46 b.]. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, Doro I ning sak qabilalariga dastlabki yurishlari muvafqiyatsiz tugagan. Bu yurishlar Behistun qoyatoshlarida faqatgina Doro I ning g'alabalari bilan bitilgan bo'lsada, tarixning yozilmay qolgan qahramonliklari keyinchalik boshqa manbalarda to'laqonli bo'lsada aks ettirib berildi. Mil.avv. IV asrning 30 yillariga kelib Fors podsholigi zaiflasha boshlaydi. Bunday vaziyatdan unumli foydalangan Makedoniyalik Aleksandr mil.avv. 330-yilda Doro III qo'shinlarini mag'lubiyatga uchratib, bu imperiyani qulatadi. Shundan so'ng diyorimizga makedonlarning kirib kelishlari, ularning bosqinchilik yurishlari amalga oshirila boshlandi. Makedonlarga qarshi xuddi Fors podsholigiga qarshi kurashgan qahramonlar bo'lganidek, bir qancha sarkardalar harakat qilishgan. Bular orasida so'g'd zodagoni Spitamenning harakatlari taqsinga sazovordir. Spitamen ([qad. fors tili](#). Spitamana [370-328](#)) so'g'dlar sarkardasi bo'lib, mil.avv. [329-328](#)-yillarda So'g'diyonada makedon bosqinchilariga qarshi ko'tarilgan xalq qo'zg'oloni rahbari hisoblangan.

Yozuvchi V. V. Yanning yozishicha, Spitamenning onasi — so'g'd, otasi — sak qabilasiga mansub aslzoda xonadondan bo'lgan. Spitamen yoshligida abjir, chaqqon yigit bo'lib o'sgan. Otda chopish, kamon otish, qilichbozlikda unga hech kim tenglasha olmagan. Spitamen dastlab Doro III ning, so'ngra Bessning lashkarboshilaridan, yaqin safdoshlaridan bo'lgan. Bess o'limidan so'ng, yunon-makedon istilochilariga qarshi 3 yil davomida mardona qarshilik ko'rsatgan [Boynazarov F. 83 b.].

[Aleksandr Makedonskiy](#) miloddan avvalgi 329-yil bahorida Turon zaminga bostirib kirib, [Maroqandani](#) egallaydi va [Tanais](#) (Yaksart, hozirgi Sirdaryo) bo'yidagi qal'alarni egallash bilan mashg'ul bo'lib turganda, baqtriyaliklar va sug'diylar Spitamen boshchiligida Sug'diyonada qo'zg'olon ko'tarib, Maroqandani qamal qilganlari haqida xabar keladi. Qo'zg'olonchilar makedon qo'shinlari ustidan ketma-ket ajoyib g'alabalarga erishayotgan edilar, bular Aleksandr qo'shinining ruhini tushirib yubormoqda edi.

Buning ustiga [Aleksandr](#) turgan Tanaisning narigi betiga osiyolik skiflar (saklar) ning katta qo'shini yetib kelgan bo'lib, Spitamenga qo'shilishga tayyor edi. Aleksandr qo'shini bilan saklarga zarba berish uchun o'q yomg'iri ostida daryodan o'tadi va saklar qisqa, shiddatli olishuvdan so'ng [cho'l](#) ichkarisiga qarab atayin chekinadilar. Arushanning yozishicha, Aleksandr qo'shini ularni jazirama issiq sharoitida biroz ta'qib etgach, tashnalik azobidan qiynalgan, u ko'lmak suvdan ichib, ichburug' kasaliga uchrab, orqaga qaytishga majbur bo'lgan. Makedon bosqinchilarida endi Maroqandaga, Spitamenga qarshi katta kuch tashlash imkoniyati paydo bo'ladi[Sulaymonova F. 89 b.]. Unga qarshi Menedem boshchiligida 3000 piyoda va 800 otliq askar yuboriladi. Spitamen uning yo'liga pistirma qo'yib, raqibini qirib tashlaydi, jangda 2000 piyoda va 300 otliq o'ldiriladi. Aleksandr unga qarshi mahalliy xalq tilini biluvchi Farnux boshchiligida qo'shin yuborgan[Abdiyev H., Qo'nishev J. 203-205 b.].

Lekin Spitamen vaziyatga to'g'ri baho berib, jang qilishdan voz kechadi va Maroqanda qamalini bo'shatib, massagetlar bilan qo'shilish uchun chekinadi. Spitamen o'ziga qo'shilgan 600 massaget otliqlari bilan cho'lga yaqin sayxonlikda o'rnatilib oladi

va [makedoniyaliklarga](#) qarshi ajoyib usulda jang qilishga qaror qiladi. U dushman hujumini ham kutmaydi, o'zi ham unga hujum qilmaydida dushman piyodalari atrofida ot choptirib, unga o'q yomg'iri yog'diradi, bordiyu makedoniyalik otliq jangchilar horigan otlarida ularga tashlanishga harakat qilgudek bo'lsalar, Spitamenning ildam baquvvat otlari osongina ulardan uzoqlashardi. Shu tariqa jang qila-qila makedon qo'shinini tinkasini quritganlar. Dushmanlardan ko'pi o'lgan, yarador bo'lgan[Shamsutdinov R. Karimov Sh. 49-54 b.].

Makedon qo'shini ko'p talafot bergach, to'rtburchak bo'lib saflanib, Politimet (Zarafshon) daryosi o'rtasida joylashgan oroldagi to'qayzorga chekingan. Bu yerda ham Spitamen ularni tinch qo'ymaydi. Makedon otliqlarining bir qismi otryad boshlig'idan beruxsat daryoni kechib o'ta boshlaydi, uning ortidan piyodalar tartibsiz suratda ergashishadi. Spitamen kamonchilari va massagetlar daryodan o'tganlarni o'ldirib, o'tishga harakat qilayotganlarni esa kamondan o'qqa tutadilar. Ayni paytda Spitamen suvoriylari va massagetlar daryodagi orollardan biriga chiqib, omon qolmoqchi bo'lgan raqibga qarshi otlarini suvga haydab qanotlardan hujum qiladilar. Makedoniyaliklarning bir qismi massagetlar qo'ygan pistirmaga tushib qolib, barcha makedon harbiy boshliqlari o'ldiriladi, bor-yo'g'i 40 suvoriy va 300 piyoda qochib qutuladi, xolos. Mana shu tariqa Spitamenning harakatchan otliqlari ketma-ket jangga kirishmay, raqibni asta-sekin tuzoqqa tushirib, uning yirik otryadini qirib tashlashga erisha olgan. Aleksandr hech qachon bunchalik yirik mag'lubiyatga uchramagandi. Shuning uchun Spitamenga qarshi o'zi o'tlanadi, Spitamen atayin cho'lga chekinadi. Biroq Aleksandr uning hiylasiga uchmay, orqasiga qaytib, alamini tinch aholidan oladi – qishloqlarga o't qo'yib, 120 mingdan ortiq aholini qirib tashlaydi[Asqarov A. 189 b.].

Miloddan avvalgi 328-yilda, Aleksandr Spitamenning ko'chmanchi massagetlar orasida yashirib yurganidan xabardor bo'lgach, ularga qarshi qo'shin yubordi. Ammo Spitamen 600 otliq bilan to'satdan Baqtriyada paydo bo'lib, Aleksandr qo'shiniga hujum qilgan. Biroq jangda mag'lub bo'lgan. Spitamen omon qolgan massagetlar bilan cho'lga yashirinadi.

Tarixchi Arrianning yozishicha, “Aleksandrning o‘ch olishidan qo‘rqqan massagetlar boshliqlari Spitamenning boshini kesib, Aleksandrga yuboradilar. Qo‘zg‘olon rahbari halok bo‘lishiga qaramay, xalq harakati yana bir yil davom etgan”. Spitamenning qizi Apama Aleksandrning lashkarboshisi [Salavkka berilgan](#), bu nikohdan salavkiylarning mashhur hukmdori Antiox tug‘ilgan [www.uz.wikipedia.org. internet sayti.].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Turon xalqlarining Eron va makedon bosqinchilariga qarshi kurashlarida To‘maris, Shiroq, Spitamenlarning harakatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning olib borgan mardonavor janglari, harbiy taktika-yu hiylalari Vatan ozodligi, uning qadr qimmatini saqlash uchun qilingan ishlardan hisoblanadi. Keyingi davrlarda ushbu qahramonlar xususan, To‘marisning jasorati va harbiy-siyosiy faoliyati to‘g‘risida xalq dostonlari yaratildi, jangnoma va rivoyatlar to‘qildi. Ergash Jumanbulbul o‘g‘lidan Hodi Zarifov yozib olgan „Oysuluv“ dostonida Turon mamlakatining podshosi Oysuluv obrazida To‘maris faoliyati o‘zining badiiy talqinini topgan. Yozuvchi Mirkarim Osim „To‘maris“ qissasida uning jasoratini ulug‘laydi. Ibrohim Yusupov „To‘maris“ (1974) dostonini yozgan, kompozitor Ulug‘bek Musayev shu nomli balet (1982)ni sahnalashtirgan. O‘zbekistonda ayollar o‘rtasida „To‘maris o‘yinlari“ festivali o‘tkazilmoqda. Shiroqning jasorati haqida turkiy xalqlar o‘rtasida jangnoma va rivoyatlar yaratildi. Bu rivoyatlar „Shiroq“ nomi bilan mashhur. Buxoro cho‘ponlari o‘rtasida bu rivoyatlar hozir ham aytiladi. U turkiy xalqlarga qo‘shni boshqa hududlardagi xalq og‘zaki ijodiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Yozuvchi Mirkarim Osim „Shiroq“ hikoyasi va shoir Usmon Qo‘chqor „Shiroq“ dostonida Shiroq jasoratini ulug‘lashgan. Toshkentda Shiroq nomli ko‘cha mavjud. Shiroq milliy qahramon sifatida O‘zbekiston tarixiga oid turli kitoblarda o‘ziga munosib o‘rnini egallagan. Spitamenning nomi ham asrlar osha yashab mardlik va jasorat timsoli sifatida avlodlarga ruhiy madad berib kelmoqda. Spitamen haqida ko‘plab badiiy, jumladan V. Yanning “Qo‘rg‘on uzra olovlar”, Y. Ilyosovning “Sug‘diyona”, M. Qoriyevning

“Sug‘d qoplani”[www.uz.wikipedia.org. internet sayti.] romanlari, tasviriy asarlar yaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdiyev H., Qo‘nishev J. Tarix: istilolar va qo‘zg‘olonlar. Toshkent. 2016.
2. Asqarov A. O‘zbekiston tarixi. Toshkent. 1994.
3. Boynazarov F. Qadimgi dunyo tarixi. Toshkent. 2006.
4. Mirkarim Osim. Jayhun ustida bulutlar. Toshkent. 1975.
5. Sulaymonova F. Sharq va G‘arb. Toshkent. 1992.
6. Shamsutdinov R. Karimov Sh. Vatan tarixi. birinchi kitob. Toshkent. 2010.
7. www.uz.wikipedia.org. internet sayti.